

## **“MAHBUB UL-QULUB” ASARINI O’QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH**

*Urganch davlat universiteti o‘zbek adabiyoti 1-bosqich magistranti*

*Egamberdiyeva Zilola*

Talabalarning bilishga oid o‘quv maqsadiga erishilganligini nazorat qilishda ular tomonidan “Mahbub ul-qulub” asaridagi nasriy va she’riy parchalar mavzusi bo‘yicha ma’lumot va axborotlarni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘quvchi mavzu bo‘yicha ob’ektlarni aniqlashi, ularga ta’rif berishi, ma’lumotlarni qayta ishlashi, o‘z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, ob’ekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirishi, mazkur jarayon, ob’ekt yoki voqeaning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishi kerak. Bilish o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlashda quyidagi ko‘p javobli nostandart testlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur test topshiriqlari o‘quvchilarning o‘zlashtirgan nafaqat bilimlarini balki ob’ekt va uning qismlarini tanish, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash ko‘nikmalarini nazorat qilish va baholash jarayonini haqqoniy va odilona amalga oshirish imkonini beradi.

1. Har bir bobda berilgan fikrlar va ularga talqin sifatida berilgan baytlarni tartibini aniqlang va jadvalga har bir nasriy va she’riy asarlar muqobilini yozing.

### **Ko‘p javobli nostandart test javobi**

*Dabiriston ahliga” “Attibbo zikrida “Kotiblar zikrida”*

2. Quyida jadvalga Alisher Navoiy fardlari va ulardagi ilgari surilgan go‘ya bo‘yicha tahlil qilib yozing

| FARDLAR   | G‘OYA |
|---|-------|
| <i>Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,</i> |       |

|   |  |
|---|--|
| <i>Aylamak bo'lmas ado aning haqin yuz ganj ila</i>   |  |
| <i>Hoziq tabibixushgo'y tan ranjig'a shifodur,<br/>Omiy-u tund-u badxo'y eljonig'a balodur.</i>   |  |
| <i>Aqlu hikmat ishidur buyla maosh –u oyin,<br/>Qayda topqay muni har nafspararst-u xudbin.</i>   |  |
| <i>Qaysi bir kotibki, ul so'zga qalam surgay xilof,<br/>Ul qaroyuzluk boshi bo'isun qalam yanglig' shikof<br/><br/>El aybini ayturg'a birovkim, uzatur til,<br/>O'z aybini fosh aylagali bil uzotur til</i> |  |
| <i>Birida muncha hunar, ul birida muncha uyub,<br/>Qaysining xo'b ekanin ahli xirad bilgay xo'b.</i>  |  |
| <i>Aqlu hikmat ishidur buyla maosh –u oyin,<br/>Qayda topqay muni har nafspararst-u xudbin.</i>   |  |
| <i>Mundin o'ldi muqrrabi Boriy,<br/>Shayx-ul islom piri Ansoriy.</i>  |  |

O'quvchilarning tushunishga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari

O'quv maqsadlarining ichida tushunish muhim o'rin tutadi. Talabalar mazkur o'quv maqsadiga erishishi uchun "Mahbub ul-qulub" asaridagi hikoyatlar mavzusi bo'yicha o'rganilayotgan muammolarning yechimini topish, ahamiyatini anglash, asosiy g'oyani ajratib ko'rsatishi lozim bo'ladi. Talabalarning ushbu o'quv maqsadiga erishganlik darajasini aniqlash, nazorat qilish va baholashda ular tomonidan o'quv materialidagi fikrlarni umumlashtirish, asosiy g'oyani qayta ishlash, misollar keltirish, o'z fikrini bayon etish va uni himoya qilish talab etiladi. Ushbu darajalarni faqat ko'p javobli nostandart test topshiriqlari yordamida aniqlash mumkin.

O'quvchilarning Blum taksonomiyasini bo'yicha bilimlarni amalda qo'llash o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari o'zlashtirgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatda qo'llashini nazarda tutadigan topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar o'quv materialini qayta ishlashi, moslashtirishi, qayta aytib berishi talab etiladi.

Talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash o'quv maqsadiga erishish darajasini quyida berilayotgan ko'p javobli, jadvalli nostandart test topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

Quyida berilgan fikrlarning qaysi biri to'g'ri?

1. Navoiy asarlarida lafziy san'atlar bilan bir qatorda ma'naviy san'atlar ham o'z o'rnida mahorat bilan qo'llanilgan.
2. Navoiy asarlarida o'z fikr-mulohazalarini isbotlash, dalillash maqsadida iqtibosiy fardlarni keltirgan.
3. Navoiy qalamiga mansub fardlarini badiiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ularda tasviriy ifodaning mukammalligini, yuksak badiiy maxoratni, poetik go'zallikni ko'ramiz.

Bunda berilgan fikrlar to'g'ri bo'lsa, "ha";, agar noto'g'ri bo'lsa "yo'q": deb yoziladi.

1. Navoiy asarlarida lafziy san'atlar bilan bir qatorda ma'naviy san'atlar ham o'z o'rnida mahorat bilan qo'llanilgan.(ha)
2. Navoiy asarlarida o'z fikr-mulohazalarini isbotlash, dalillash maqsadida iqtibosiy fardlarni keltirgan.(ha)
3. Navoiy qalamiga mansub fardlarini badiiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ularda tasviriy ifodaning mukammalligini, yuksak badiiy maxoratni, poetik go'zallikni ko'ramiz.(ha)

**Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing.**

1. K i jahon kimsaga vafo qilmas,  
Shohlig' tarkiga \_\_\_\_\_.
2. Joni \_\_\_\_ arosinda,

Mo'r ikki ajdarho arosinda.

3. Boqmayin mulk ila \_\_\_\_\_,

Qilmayin mayl\_\_\_\_\_.

### **Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozing(javobi)**

1. K i jahon kimsaga vafo qilmas,

Shohlig' tarkiga kiro qilmas.

2. Joni ikki balo arosinda,

Mo'r ikki ajdarho arosinda.

3. Boqmayin mulk ila sipoh sori,

Qilmayin mayl dodxoh sori.

### **Talabalarning Blum taksonomiyasi bo'yicha bilimlarni sintezlash o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari**

O'quv maqsadlari ichida bilimlarni sintezlash muhim o'rin tutadi. Sintezlash o'quv maqsadining asosiy mohiyati talabalar tomonidan kurs yoki mavzu mazmunidagi asosiy g'oyalarni mujassamlashtirish, jarayon va ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratish, yoki umumlashtirish, rekonstruksiya qilish sanaladi. Talabalar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan mazkur aqliy operatsiyalarni ko'p javobli nostandart testlardan foydalaniladi.

### **Talabalarning xulosa yasashga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari**

O'quv maqsadlari ichida xulosa yasash yakunlovchi va tizim hosil qilish vazifasini bajaradi. Xulosa yasash o'quv maqsadining asosiy mohiyati talabalar tomonidan o'rganilgan kurs yoki mavzu yuzasidan xulosa yasash sanaladi. Bu jarayonda talabalar tomonidan ta'lim mazmunidagi ma'lumotlarga baho berishi, tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini qo'llab fikrga qarshi fikr bildirishi, qo'llab-quvvatlashi yoki inkor etishi talab etiladi. Mazkur jarayonda nostandart ko'p javobli test topshiriqlaridan foydalaniladi.